

Жадид

2025-yil 10-yanvar  
№ 2(54)  
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

Xalqaro maydonda o'z so'zi va o'mriga ega bo'lib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning hozirgi jangovar salohiyatini o'tgan yillar bilan sira taqqoslab bo'limaydi. Tizimda kechayotgan yangilanish va o'zgarishlar, mashg'ulotlarga singdirilayotgan professional yondashuvlar, xususan, qo'shlnarning jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishdagi nostandard qadamlar harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Yil davomida zamonaviy poligonlarimiz harbiy xizmatchilarimizning jangovar mashg'ulotlari, mehnat-u mashqlaridan bir dam tinmagan bo'lsa, ma'naviy poligonlarda ham g'ayratli, shijoatli o'g'lolnarning bilim va ma'nativyatini oshirish chora-tadbirlari aslo to'xtagani yo'q.



## "MA'NAVIY YUKSALISH POLIGONIDAN GAPIRAMIZ!"

Qo'shinlarimiz salohiyatini yanada oshirish masalasi kun tartibida turar ekan, harbiy xizmatchilarimiz yilning to't fasida – jazirama-yu qahratonda, yer-u samoda ham qo'yilgan vazifalarni bajarishdan sira ortga chekinmaydi.

### BURCHIMIZN ANGLATGAN LAHZALAR

Ayni damlarda yurtimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami keng nishonlanmoqda. Bu yilgi "Vatanparvarlik oyligi" tadbirleri "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida olib borilmoqda. Bir-birdan salmoqli ko'rgazmalar, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirleri, atoqli ilm-fan namoyandalarini, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilar, Mudofaa vazirligi faxriylari bilan uchrashuvlar vazishiga yordam berish tadbirleri yuksak saviyada tashkillashtirilmoxda.

Sa'y-harakatlar mohiyatidagi muhim angamlardan biri shuki, yil bo'y davom etadigan ushbu tadbirlarda yurdoshlarimiz shu Vatan tinchligi va daxsizligi yo'lidagi javobgarlik, oila oldidagi burch, dunyoda kechayotgan notinchliklar ichida tinchlik naqadar ulug'vor ne'mat ekанини teranroq anglaydi.

### JANGOVAR MADANIYAT BIRLASHGAN NUQTA

Poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hududida yangidan bunyod etilgan Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti binosining tantanali ochilishi chin ma'noda milliy armiyamizning "ma'naviy poligoni" sifatida baholandi.

Mazkur inshootda vazirlik tasarrufidagi Ma'naviyat va madaniyat hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti faoliyat yuritib kelmoqda.

Departament mutlaq yangi tarkibiy-shtat tuzilishida tashkil etilib, unga Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansamblı, Alohiда ko'rgazmali-namunali harbiy orkestr, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, "Turon" davlat harbiy teatri biriktiridi.

(Davomi 3-sahifada) ➤

MUNOSABAT

## MILLAT OYDINLARI PESHVOSI

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillar milliy ma'niviyatimizning ildizlarini teran o'rganish, targ'ib qilish va yosh avlodning ajoddolaliga monand ruhda tarbiyalash borasidagi ishlar karrasiga ko'paydi va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ana shu ishlarni amalga oshirishda XX asr bosqlarida Turkistonga kirib kelgan jadidlik harakatining bugungi kundagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu ishlarni yanada jalal-lashtirish va jadidlik harakati mazmun-mohiyatini chuquarroq o'rganish maqsadida "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida" imzolagan qarori oldimizda turgan vazifalarni chuquarroq his qilishimiga undaydi.

Turkistonda jadidlikning maydonga kelishida va bu harakatning g'oya hamda dasturining keng yoyilishida Mahmudxo'ja Behbudiy katta o'rinn tutadi. Behbudiyning yaqin safdoshlaridan biri



Behbudiy uy-muzeysi. Samarqand shahri.

Hoji Muin so'zlari bilan aytadigan bo'isak, "Bizdag'i yangilik rahbarlarining biri va balki birinchisi, shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudiydir. Behbudiy afandi uyg'onish davri va o'zbek adabiyoti tarixida birinchi o'rungi olg'ga loyiq bir zotdur..." Zero, "Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasasi sifatida ilm-fan, ta'lif va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksalish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir."

Qarorga ko'ra, mutafakkir adibning "Tanlangan asarlar" to'plami, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrha tayyorlash va chop etish ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash joizki, Behbudiy hazratlari qora kuchlar tomonidan xanjar urilib, jisman mahv etilmagan taqdirda ham uni qatag'onning qattol qili-chi kutib turgan edi. Sovet davrining so'nggi yillarigacha u zotning asarlarini chop etilmagani, hatto ismi-sharifi ham taqiq tamg'asi ostida qolgani fikrimga dalldir.

(Davomi 3-sahifada) ➤

### OCHERK

## TENGI YO'QDIR SHARAF BOBIDA

yoxud jasoratli Diloram haqida qissa

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti har bir videoselektorni joni, mazmuni, samarali o'tkazadi. Ularda davlatimiz taraqqiyotining turli sohalari qamrab olinadi. Barchasida el-yurt farovonligi, mamlakat tinchligi bilan bog'liq hayotiy masalalar muhokama qilinadi. Uni ko'rgan odam xuddi Yangi O'zbekiston hayotining qaynoq og'ushiga tushib qolganday sezadi o'zini. Davlat siyosatida masalaning katta-kichigi bo'limaydi, barchasi birday muhim. Shu bois men ana shu majlislarni doim tinglab, kuzatib boraman.

O'tgan yili 13-dekabr kuni bo'lgan navbatdagi videoselektor majlisida nogiron shaxslar, imkoniyati cheklangan odamlarga g'amxo'rlik ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsil qilindi. Bunday toifaga mansub insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga shart-sharexit yaratish, kasb-hunar o'rgatish, ko'mak berish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi.

Shu kungi yig'ilishda yuz bergan ajoyib voqeя shubhasiz, barcha yurtdoshlarimizning ko'nglini ko'tarib yubordi.

(Davomi 5-sahifada) ➤



### O'ZBEK TILIM – O'Z TILIM

Bugungi kunda dunyoda ellik millionga yaqin kishi o'zbek tilida so'zlashmoqda. Chet elliklarning O'zbekistonga kelib, ona tilimizni o'rganayotgani yuritimizning dunyodagi mavqeysi tobora yuksalish borayotganidan dalolat.

Xitoylik Bay Yang xonim ayni paytda poytaxtimizda yashab, o'zbek tilini o'rganib, ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



## Xitoylik Nodiraning beg'ubor orzulari

Bu yerda, O'zbekistonda do'stlarmen Nodira deb chaqirishadi, – deydi Bay Yang. – Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha birinchi bosqich doktorantiman. O'zbek tili bilan ilk tanishuvim 2018-yilda Xitoya boshlangan va o'sha vaqtdayoqunga mehr qo'yib, sevib qolganman. O'zbek tilining talaffuzi, jozibasi meni o'ziga maftun qilgan. O'zbekistondagi birinchi ustozim Dilfuza opa menga mashhur shoira Nodirabegimning hayoti va iodi haqida so'zlab bergen, menga "Nodira" deb ism qo'yan. Bilasizmi, boshida Nodirabegim she'rlari va g'azallarini unchalik yaxshi tushunma-

ganman. Hozir esa uning g'azallarini o'qib, ta'sirlanaman va yangi ismim bilan faxrlanaman.

Universitedat ko'pchilikning yordami bilan o'zbek tilini yanada mukammal o'rganyapman. Ayniqsa, ilmiy rahbarim, filologiya fanlari doktori, professor Saodat Muhammadova va Durdona Ermatovadan juda minnatdorman.

Dissertasiyamni himoya qilgach Xitoya qaytib, universitet talabalariga o'zbek tilini o'rgatmoqchiman. Xitoylik yoshlarini o'zbek tili va madaniyati bilan tanishitirish, ikki mamlakat o'ttasida do'stilik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shish asosiy maqsadimdir.

Zarnigor IBROHIMOVA yozib oldi.

"Hurriyatdan va hamvataniyatlardan bahra topmoqchi bo'lsak, lozimki, o'zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo'lsun, ul milliy askarlarimizni vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarz maishatini o'zimiz tayin qilurmiz".

BEHBUDIY



(2-sahifada o'qing) ➤

etilgan. Tabiatan ilmga chanqoq bo'lgan otam Akromov Abdusalom Huseyn o'g'li ham Abduqodir Shakuriy dars berayotgan ushbu maktabga o'qishga boradi.

Bunday maktablarda o'quvchilar dunyoviy fanlarni o'ganishib, faxriy yorliqlarni qo'iga kiritishlar, xuddi internat maktablardagi kabi bepul kiyimbosh bilan ta'minlanar edi. Uni muvaffaqiyatli tugatganlar esa "Pedagoglar tayyorlash o'quv yuritni tamomladi" degan ma'lumotga ega bo'lishgan va o'qituvchi bo'lib ishshash vakolatini olishgan.

Otam ham shunday hujjatga ega bo'lgach, akasi Abdunasim bilan birgalikda uyimizda maktab ochishadi va mahalliy ayolerkalarni yig'ib, ularga ta'lim bera boshlaysi.

Otam va amakim ma'rifat tarqatishga shunchalik berilib ketishadiki, choyxona va guzarlarga ham chiqib, yosh-u qariga gazetalar o'qib berishadi, kundalik yangiliklar bilan tanishitirish boshradi. Shuningdek, aholi to'planadigan joylarda yig'ilishlar o'tkazib, yosh-yalang, aylol-qizlarni o'qishga, ilm olishga targ'ib qilishadi. Bundan tashqari, ular musiqiy to'garaklar oshadilar.

(Davomi 7-sahifada) ➤

MUJDA

## “VATAN – AZIZ, JASORAT – MANGU!”

TANLOVI G’OLIBLARI ANIQLANDI



**Shu yilning 9-yanvar kuni**  
Yoshlar ishlari agentligida  
O’zbekiston Respublikasi  
Qurolli Kuchlari tashkil  
etilganligining 33 yilligi  
hamda 14-yanvar – Vatan  
himoyachilari kuni munosabati  
bilan “Vatan – aziz, jasorat –  
mangu!” respublika tanlovi  
g’oliblarini taqdirlash marosimi  
o’tkazildi.

Tadbir O’zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi  
hamda bir qator tashkilotlar  
hamkorligida tashkil etilib, unda  
taniqli yozuvchi va shoirlar, OAV  
vakillari, olyi ta’lim muassasaları  
talabaları hamda Vatan posbonları –  
zobit o’g’lonlar ishtirot etdi.

Ta’kidlash joizi, tanlovgaga 50 dan  
ortiq nomzoddan 200 dan ziyod  
ijodiy ishlari kelib tushgan. Tanlovgaga  
taqdim etilgan asarlarda “Yangi  
O’zbekiston armiyasi – mamlakat  
tayanchi, xalqimiz faxri!” degan  
egzu g’oya mujassam. Ularda Yangi

Akmal JUMAMURODOV



## TADBIR

Vatanni sevish, ardoqlash, himoya  
qilish – har birimizning sharaflı  
burchimiz. Bu yo’lda kimdir qo’ida  
qurol bilan bepoyon sarhadlarda tun-u  
kun sergak tursa, kimdir o’tkir fikrlari,  
ma’naviyat va ma’rifati bilan el-u yurtin  
turli axboriy bo’ronlardan asrashga  
intiladi. Shu jihatdan olib qaralsa,  
yengilmas harbiylarimiz va millatsevar  
ziyolilarimiz hamkasbdir. Buni yaqinda  
Markaziy harbiy okrugda “Yangi  
O’zbekiston armiyasi – mamlakat  
tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida  
o’tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir  
ham tasdiqlab turibdi. Unda “Jadid”  
gazetasini xodimlari, Samarqand viloyati  
Yozuvchilar uyushmasi mas’ullari,  
Nuroniyalar kengashi a’zolari, serjantlar  
va harbiy xizmatchilar ishtirot etdi.

Avvalo, Mudofaa vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi raisi va mehnmonlar  
Markaziy harbiy okrug qo’shinlariga  
qarashli harbiy qismlardan birida  
serjantlar va harbiy xizmatchilar uchun  
yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. U  
yerdagi kecha-yu kunduz ishlovchi  
zamonaviy kutubxonasi va “O’q otish  
markazi” yig’ilganlarda iliq taassurot  
uyg’otdi. Okrugning o’quv binosida tashkil  
etilgan zamonaviy muzeysiagi milliy  
armiyamiz tarixi, Sohibqiron Amir Temur  
va shu kabi buyuk sarkardalimizning  
hayot yo’li, ma’rifatparvar jadidlarimizning  
ijodiy va ilmiy merosi haqida ma’lumot

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu tariqa bir necha avlod buyuk  
bobomizning bebahoi asarlardan  
bebabra ulg’aydi. Keyinchalik  
zamon imkon bergach, ayrim  
fidoyi olimlarimiz jiddi-jahdi bilan u  
zotning turli manbalardagi bitiklari  
gazeta va jurnal sahifalarida,  
shuningdek, kitobat tarzida nashr  
etilgan bo’lsa-da, ularni to’laqonli  
meros namunasini deb aytish tarixiy  
haqiqatga zid bo’lur edi. Jadidlik  
peshvosi bo’lgan ma’rifatparvar  
mutafakkirning tanlangan asarlari  
hamda ularga sharh o’laroq tadqiq  
kitoblarining chop etilishi Yangi  
O’zbekistonning navqiron avlod  
ruhoniyatida millat oydinlari va  
kelajak o’tasida beqiyos ko’prik  
tiklanishiga zamin yaratadi.

Ma’lumki, Mahmudxo’ja Behbudiy  
milliy uyg’onishning vositalaridan  
biri teatr deb hisoblagan va bu  
tomoshaxonani iibratxona atagan.  
Teatr san’atimiz bevosita jadidlar  
peshvosi bo’lgan bobomiz nomi  
bilan chambarchas bog’lanadi, ilk  
milliy sahna asari “Padarkush” nomi  
bilan u zotning qalamiga mansubdir.  
Ayni damda dramaturgiyamiz otasi  
bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy  
haqida spektakllar sahnalashtirish  
hamda bugungi kunga qadar  
yaratilgan “Mahmudxo’ja Behbudiy”  
kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiy-  
publististik filmlarining ommaviy  
namoyishlarini tashkil qilish vazifasi  
binobarin, buyuk san’atkor  
boshtagan yo’ning uzyvi va  
mantiqiy davomi hisoblanadi.

Barcha jadid namoyandalari  
qatori eski ta’lim tizimini tubdan isloh

## MILLAT OYDINLARI PESHVOSI



qilish, yangi usuldagagi maktablarni  
joriy etish g’oyasi Behbudiy domla-  
ning asosiy maqsadlaridan bira  
edi. Tabiiyki, Behbudiy qalamga  
olgan mavzularning aksariyati  
Turkiston maktab-madrasalarining  
islohi, bu borada qilinayotgan sa’y-  
harakatlar haqida edi. “Behbudiy  
maqolalarining ko’bisi muhim  
mavzularida yozilg’on bo’lub, hanuz  
eskirgan emas va bu kunlarda ham  
biz uchun dasturlamal bo’latrg’on  
foydalik so’zlardur”, deb yozadi o’z  
vaqtida Hoji Muin. Masalan, uning

“Tarjimon”dagi “Turkistonda maktab  
lisoni” maqolasida Behbudiy Turkis-  
tondagi maktablarida tahsil bir tillik  
emas, bir necha tillik bo’lishini  
yoqlab chiqqan edi.

O’z navbatida, qarorda ko’zda  
utilgan umumiyo’rta ta’lim muassa-  
salari, ijod maktablari o’qvychilarini,  
“Temurbeklar maktabi” kursantlari  
hamda olyi ta’lim muassasalarini  
talabalari o’tasida “Mahmudxo’ja  
Behbudiy saboqlari” mavzusida  
insholar tanlovini o’tkazish va  
g’oliblarni munosib taqdirlash,

o’playmizki, o’qvychilarini Behbudiy  
shaxsiyatiga yaqinlashtirib, uning  
oliy niyatlari mohiyatini anglashga  
xizmat qiladi.

Kuzatishlarimizga tayangan holda  
to’la ishonch bilan aya olamiz-  
ki, Behbudiy fenomeniga nafa-  
qat Markaziy Osyo, balki dunyo  
miyosida afkor ommanning qiziqishi  
yuqori. Bu esa o’z navbatida buyuk  
bobomiz ijodi va shaxsiyatiga turli  
nuqtayi nazarlarini jamlash va  
o’zimizga foydal xulosalar chiq-  
arish imkoniyatini beradi. Oktabr  
oyida “Mahmudxo’ja Behbudiy  
merosi va jadidlik harakatini o’-  
ganishning dolzarb masalalari”  
mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya dunyo jadidshunos-  
lari birlashtiradigan, ma’rifatparvar  
xalqimiz jahonga yanada tanita-  
digan muhim voqeal bo’lajak.

Men barcha millatimiz oydinlарини  
mazkur tarixiy qaror bilan chin  
yurakdan qutlab, g’ayrat kamarini  
mahkam bog’lamoq chog’i kelgani-  
ni yana bir karra ta’kidlab o’tmoq-  
chiman.

Zaynobiddin ABDIRASHIDOV,  
Anqara Hoji Bayram Vali  
universiteti professori

Mahmudxo’ja BEHBUDIY

## YOSHLARGA MUROJAAT

Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram  
yoshlar mavjudki, hukumat mahkamalarida:  
tijoratxona, banka va korxonalarda kotib,  
tarjimon, molfurush va dallollik yoki nasiyachilik  
ila mashg’uldirilar. Bu sinf ahlining addadi bugun  
Buxora va Turkistonda minglarchadir. Ana  
yoshlarga murojaatdan murod shu sinf ahliidan  
bo’lgan hamvatlanrimizga bir necha kalima  
arz qilmoqdir. Lutfan so’zimizni tinglasalar, deb  
iltijo qilamiz. Va kamoli ehtirom ila ul janoblargacha  
bayon qilarmizki, sizlardan aksaringiz savqi  
qadar va yoki savqi tabiatli ila bir nav’i bo’lib,  
ruscha bir oz o’qib-yozmoqqa va yoki faqat  
so’ylamoqqa qodir bo’libsiz. Va bu ozgina  
zamoniy bilgi sababidan vazifa olib, yengillik  
va bir oz rafohiyat ila umr o’tkazasizki, Tangrim  
ziyoda etsin!

Sizlarning ozgina zamona ilmini bilganingiz,  
albatta, na’f keltirdi va alhamdulilloh, dini  
mubinga ham yaxshi mu’taqidsiz va bu zamona  
ilmi e’tiqodingizni buzmadi. Zotan islomiyat  
shunday bir dini matin va qobil taraqqiyidir, na

qadar zamona ilmini ko’p o’qisa, insonning dini  
islomda aqidasi shuncha mustahkam bo’ladi.  
Chunonchi, zamona ilmini ko’p o’qigan Ovrupo  
olimlarining eng nomdor va davlatliklарidan  
musulmon bo’lub turganlari jaridaxonlarga  
ma’lumdir. Bas, sabab bo’ldiki, ilmi zamoni  
islomiyatga zarar qilmoq nari tursun, foyma  
etar, endi matlabga kelaylik.  
Muhtaram birodarlar! Siz xizmat qiladigan  
doiralaridan kattava sizdan ozishlaydigan  
va sizlarga ish buyuradigan kishilar borki,  
sizdan besh, hatto, yigirma daf’ a ziyoda vazifa  
olur (ba’zi bank va tijoratxonalarida oyda besh  
yuz so’m, hatto ming so’m oladigan kishilar bor  
va ularning tijorat maktabida o’qigani besholti  
yilginadir). Buning sababi nima? Sizning  
qo’l ostingizda sizdan ko’p ishlaydigan va  
qattiq xizmat qiladigan va yu ko’taradigan  
musulmon va yo’risilar borki, sizdan ham  
oz vazifa oladi. Buning sababi nima? Albatta,  
bunga javob berasizki, bizning ustimidandan  
qaraydiganlarning “ilmi zamoni”si bizdan

ziyoda va mehnatkashlarning ilmi bizga ham  
emas. Mana sabab shudir.

Biz ham dermizki, javobingiz durust. Bas,  
ma’lum bo’ldiki, hozirgi zamona ishlariiga xoh  
tijorat, hukumat va sanoatxonalarga bo’lsin,  
kirib vazifa olmoq va ish qilmoqqa ilmi zamoni  
degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadri  
bilgusi vazifa olar ekan.

Bas, siz muhtaramlar ham o’z avlodiningizni  
va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki,  
sizdan ko’ra taraqqiy etsa, din va millatga  
xizmat etsa (din va millatga xizmat ilm va  
aqqha ila bo’lar). Shu ilmi zamoni yahsi  
qilmoq uchun harakat qilmog’ingiz lozim.  
Hamvatlanrimiz mulkini sotib to’y qilganidek,  
siz ham hatto, lozim bo’lganda mulkingizni  
sotsangiz-da, o’g’lingizni zamonga mos  
o’qishiga harakat qilsangiz. To’yga isrof  
qilinadigan aqchalarni o’qimoq yo’liga sarf  
qilsangiz!..

“Oyina” jurnali,  
1914-yil 21-son

## ASKAR YURTNI ASRAR



beruvchi ko’rgazmali zallar kelajak avlodni  
vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy  
g’ururni o’stirishga xizmat qilishi alohida  
ta’kidlandi.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli  
Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi  
hamda “Vatanparvarlik olyagi” doirasida  
o’tkazilgan mazkur uchrashuv harbiy  
orkestr va tadbir qatnashchilari jo’rligida  
yangagan madhiyamiz bilan boshlandi.  
Shundan so’ng, O’zbekiston Respublikasi  
Prezidentining yaqinda qabul qilingan  
“Turkiston jadidlik harakatining asoschisi,  
atoqli adib va jamaat arbobi, noshir va  
pedagog Mahmudxo’ja Behbudiy tavol-

beruvchi ko’rgazmali zallar kelajak avlodni  
vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy  
g’ururni o’stirishga xizmat qilishi alohida  
ta’kidlandi.

Darhaqiqat, avvalboshdan jadid bobo-  
larimiz yurtimizda milliy armiya barpo  
etish orzusi bilan yashagan edi. Bu  
fikrni asoslash uchun 1917-yillardayoq  
Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavar  
qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy,  
Abdulla Qodiriy, Shamsiddin Badriddinov  
singari vatanparvar siymlarning “Milliy  
askar”, “Bizda askarlik masalasi”, “Milliy  
askarlarga muruvvut ham salom” kabi  
yuzlab maqolalari o’nlab gazeta va

ro’znomalarda e’lon qilinganini eslash  
kifoya.

Uchrashuv davomida Markaziy harbiy  
okrug faollar zalida jam bo’lgan ofitselerlar,  
serjant va askarlar o’zlarini qiziqitgan  
savollarga atroficha javob olishdi. Shub-  
hasiz, ular orasida adabiyotga, ilm-u  
ma’rifatga oshnolar borligi quvonarlidir.  
O’zbekiston Qurolli Kuchlari safida xizmat  
qilayotgan ijodkor askarlar Tojiddin Rahim-  
qulovning “Yashasin, O’zbekiston!”,  
Umidjon Abdumajidovning “Men posbon-  
man” singari she’rlari yig’ilganlarni to’lqin-  
lantirib yubordi. Xususan, Umidjonning  
she’rida shunday satrlar bor:

Men posbonman  
Ota hovlining  
Yalpizlari, rayhonlariga.  
Tandirlari, o’choqlari va  
Qaldirg’ochli ayvonlariga.

Men posbonman nihollari-yu  
Asriy azim chinorlariga.  
O’qariqda chopqillagan suv  
Ham buloq, ham anhorlariga.

Men posbonman nigohi jayron  
Singillarim – dilbarlarimga.  
Qo’ndirmasman gard ham, onajon,  
Gulzordagi gulbarglarimga.

Men posbonman tun-u kun uyg’oq –  
Qumrilarning halovatiga.



Javobgarman tabarruk tuproq –  
Temurbekning omonatiga...

Men posbonman, bo’ynimda tumor –  
Bobolardan meros qasamyod.  
Siz xavotir chekmangiz zinhor,  
Yangi Yurtni etingiz bunyod!

Men posbonman, sanadim bir-bir,  
Goh chechakdan, gohi sarhaddan.  
Shular bari jam bo’lsa, axir,  
Atalgaydir muqaddas!

Mamlakatimiz barqaroriga va xavfsizligi,  
sarhadlarimiz daxsizligi, xalqimizning tinch  
va osoyishta hayotini ishchonchi himoya  
qilishga qodir ana shunday fidoyi, mard  
o’g’lonlarimiz bor ekan, ertangi kunga  
ishchonchimiz yuksalib boraveradi. Yoshlarni  
vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy  
qadriyatlarini ulug’lashga chorlovchi bu kabi  
tadbirlar yurtimiz bo’ylab davom etadi.

Sh.IBRAGIMOV

# "MA'NAVIY YUKSALISH POLIGONIDAN GAPIRAMIZ!"

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, joylardagi 5 ta garnizonga qarashli Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, 16 ta harbiy orkestr hamda 56 ta harbiy qism madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish ham departament zimma-siga yuklatildi.



Muassasada 277 o'ringa mo'ljallangan katta anjumanlar zali, teatr xonalari, ansamblning vokal, xor, balet va sozandalari guruhlar uchun alohida repetitsiya xonalari hamda ovoz yoziш studiyasi barpo etilib, so'nggi rusumdag'i uskunalar bilan jihozlandi. Universal anjumanlar zalida nafaqat anjumanlar, balki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, jonli ijrodagi konserst dasturlari, teatr tomoshalari, hatto kinozal gapiramiyati foydalanish uchun ham barcha zaruriy sharoitlar yaratildi.

Ayni paytda departamentda telekanallar va maxsus loyihibar bilan ishlash xonalari, ovoz yoziш va 7 ta telemontaj xonalari hamda "Armiya studiyasi" doimiy ravishda ishlab turibdi.

Majmuuda joylashgan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti ham mudofaa sohasidagi islohotlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, vazirlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, armiya hayotiga oid ma'lumotlarni aholiga tezkor ravishda yetkazishda faoliik ko'satmoqda. Ushbu departament Axborot-media va "Vatanparvar" birlashgan tahririylari boshqarmalari, Elektron ommaviy axborot vositalari va veb-resurslar bilan ishlash hamda faoliyatni ta'minlash bo'lim va bo'linmalarini o'z ichiga oladi.

Demak, harbiy xizmatchilarini muntazam chiniqtirib boradigan maktabni poligon deb atasak, Ma'naviyat va madaniyat departamentini harbiy xizmatchilar va yoshlarning intellektual qobiliyatini namoyon etuvchi, san'at va madaniyat, ilm-ma'rifikatga undovchi "ma'naviy yuksalish poligoni"ga meng-zash mumkin.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining tegishli qarori bilan tashkil etilgan Ma'naviyat va madaniyat departamenti tom ma'noda Mudofaa vazirligi tizimida avval tarqoq bo'lgan madaniyat va san'at yo'nalishlari faoliyatini muvofiqlashtirib, ularni aniq maqsad yo'lida birlashtirdi.

## ASKAR OTA-ONALARINI SHARAFLAYMIZ!

Ruhiy xotirjamlik jangchi hayotining muhim bo'lagi ekanli, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo kabi shoh va sarkardalarimiz shu orqali o'z qo'shinlarida mushtarak birlashuvga erisha olgani barchamizga ayon. Ana shunday ruhiy quvvatining muhim omili sifatida Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan mard o'g'onlari bilan ularning oila a'zolari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanib borayotganini ta'kidlash joiz. Chunki har bir Vatan himoyachisi oиласидаги тинч ва ижоби мухитдан бевосита руhiy quvvat oladi.

"Askar ota-onalarini sharaflaymiz" loyiha-sining qo'shinlarimiz o'tasida ommalashib borayotgani, bu esa borgan sari ko'ngillarda yuqori kayfiyat va shijoat uyg'otayotgani ayni haqiqat. Ushbu tashabbus orqali respublikamizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan hamyurtlarimiz farzandlarining askarlik hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoga.

Toshkent viloyati hududida joylashgan harbiy qismida bo'lib o'tgan loyiha doira-

sidagi uchrashuv ham ko'philikning yodida qoladigan bo'ldi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Toshkent viloyati hokimiyyati hamkorligida tashkillashtirilgan uchrashuv shukuhi quchoq-quchoq guldaста bilan ota-

Urushda zo'r arslon yuragi kerak, Kurashda-chi, qoplon bilagi kerak. To'ng'izdek hujumkor, bo'ridek kuchi, Ayiq shiddatiy qo'tosning o'chi. Yana usta bo'lsa qizil tulikde, Tuya erkagidek qila olsa kek. Himmati bo'lsa bir zo'r arsloncha bor. Misli boyqush bo'lsa tunlari bedor, - deb yozadi Yusuf Xos Hojib

Ana shunday metin ruhiyat bilan xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan olam-shumul natijalari va obro'-etibori zamirida, hech shubhasiz, mamlakatimizda olib borayotgan strategik puxta siyosat yotadi.

Chindan ham o'tgan yil milliy armiyamiz uchun ulkan yutuqlarga boy bo'ldi. Askarni tom ma'noda toblaydigan akademiya – Mudofaa vazirligi tasarrufidagi yigirgmadan ortiq poligon xalqaro talablariga mos ravishda jihozlandi, bo'linmalar amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy jangovar harakatlarni faol qo'llay oldi, yangi taktik usul va uslublar yuksak mahorat bilan amaliyotga joriy qilindi.

O'tgan yil davomida mutaxassislarini tayyorchash va malakasini oshirish bo'yicha xalqaro harbiy hamkorlik rejalar doirasida 30 dan ortiq hamkorlikdagi tadbirlar o'tkazildi. Turkiya, Ozarbayjon, AQSh, Pokiston, Hindiston, Qozog'iston, Britaniya, Fransiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan o'quv treninglar, taktik mashqlar davomida harbiy xizmatchilarimiz malaka oshirish barobarda, jangovar tayyorgarlik masagh'ulotlarida jangni olib borish va boshqarish bo'yicha o'zaro tajriba almashtidi.

## JAHONNING SARA ARMIYALARI SAFIDA

Muhtaram Prezidentimizning e'tibor va tashabbuslari bilan qisqa vaqt ichida milliy armiyamiz zamon talablariga mos ravishda isloh qilindi, yangi namunadagi qurol-aslashe va harbiy texnikalar bilan qayta ta'minlandi. Boshqaruv organlari va qo'shinlarning operativ hamda jangovar tayyorgarligi darajasi 2 barobarga oshdi. Qurolli Kuchlar va qo'shini turlari o'tasida hamkorlik mustahkamlandi, harbiy shaharchalar va poligonlarning infratuzilmasi zamonaviy va milliy uslublar uyg'unligida bo'y ko'rsatdi.

Bu jumlalar aytilgaga oson, uning ortidagi mashaqqat va mehnat, betinim izlanishlarni hamma ham his qilavermaydi. Milliy armiyamizning jangovar shayligi va salohiyati oshib borayotganini AQSHdagi "U.S. News & World Report" yangiliklar jurnalining 2024 yil uchun nashr etilgan reytingi ham tasdigayotir. Unga ko'ra, O'zbekiston armiyasi jahoning eng sara armiyalari orasida o'n to'qqizinch, Markaziy Osyo mintaqasida esa birinchi o'rinni egalladi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz O'zbekiston Respublikasi aholisining osoyishta hayotiy va xavfsizligini, davlatimiz suvereniteti va hududiy xizlitigini ta'minlashga har tomonlama qodir, deb ishonch bilan aytalaymiz.

Kelgusida alohida yo'nalishlarda qo'shinlarimiz jangovar tarkibini mustahkamlash, turli idoraviy bo'yusunuvdag'i tuzilma-

onalarini qarshilayotgan navqiron yigitlar yuz-ko'zida balqib turdi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda Jamoatchilik kengashi a'zosi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonov, Qurolli Kuchlar faxriyari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari va boshqalar ishtiroy etishdi. Jizzax, Samarcand, Farg'on'a viloyatları va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan ota-onalar askar farzandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ularning kundalik faoliyati bilan yaqindan tanishar ekan, davlatimiz tomonidan mudofaa sohasida olib borayotgan ulkan islohotlar samarasini yaqqla his qilishdi. Shu kuni bir guruh ota-onalarga o'g'onlarning namunali xizmatlari uchun tashakkurnomalar topshirildi. Bir dasturxon atrofida o'z farzandlari bilan tushlik qilgan bu isonlarning chehrasida ishonch va minnatdorlik kayfiyatni porlab turdi.

## BIZGA ARSLONYURAK ASKARLAR KERAK!

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida harbiy an'analar xususida to'xtalib, qo'shin boshlig'i da'lati lozim xislatlari haqida shunday deydi: "Qo'shinga shunday boshliq kerakki, uning nomini eshitib oq yow lashkarining uyqusi o'chib ketishi lozim. Qo'shin boshlig'i bo'lувчи shaxs o'ziga puxta va ishiga pishiq bo'lishi shartki, lashkarga bosh bo'lish – og'ir ishdir. Negaki, u dashman bilan birinchi yuzmayuz keladi. Unda bir qancha jangovar xislatlari ham bo'lishi kerak. Unda mardlik va kuchli jismoniy holat, merniganlik va saxovat fazilatlari jam bo'lmog'i lozim".

Bugungi qo'shinlarimiz buyuk sarkar-dalarimizning mohirona jang san'ati,



qadriyatlarini va bebafo fazilatlari bilan oziqlanib bormoqdaki, ma'naviy kuch va jangovar mashg'ulotlar uyg'unligi Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan har bir o'g'lon uchun mardlik, or-nomus va sharaf ishiga aylanib ulgurdi.

...Erkak kishi or-nomusini deb yovga otildi, undan o'chni oladi. Or-nomus tufayli u yow lashkarini parokanda qiladi. Jangda eng avval benomuslar chekinadi, orqaga qarab qochadi. Nomusni deb qo'rqqo ham aplik qiladi.

lar o'rtaSIDAGI hamkorlikni va ular bilan birgalidagi jangovar tayyorgarlik samsaradorligini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida qo'shinlariga eng zamonaviy jangovar amaliyotini joriy etish va boshqa ko'plab yo'nalişlarda ishlardan etajak. Ishonchimiz komilki, Milliy armiyamiz tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jonasjon Vatanimizning istiqboli va uning ishonchli himoyasini ta'minlashda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Kapitan Bobur ELMURODOV

## SUHBAT

**Insonda Vatanga muhabbat, sadoqat, millatparvarlik va fidoyilik tuyg'ularining shakllanishi va mustahkamlanishi tarixiy saboqlarning ham o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxs moziydan bir saboq oladi. Bu borada jadidlar ma'naviy merosining o'rni beqiyos. Millat oydinlarining nainki asarlari, balki hayot maktabi ham kishini e'tiborsiz qoldirmaydi. Albatta, ruhiy ozuqa, ma'nun tarbiya beradi.**



## HARBIYLAR NEGA JADIDLARNI O'RGANADI?

Kuch tuzilmalari olyi harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'tasida "Jadidlar – millat fidoyilari" ko'rik-tanlovining o'tkazilishi zamirida ham mana shunday ezgu g'oyalari aks etgan. Jadidlar tarxi bilimdonlari bellashuvida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Qurolli Kuchlar akademiyasining "Ma'rifat" jamoasi birinchnikni qo'iga kiridi. Biz bugun bilmilar bellashuvida faol ishtiroy etgan, akademianing Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari taktili qo'mondonligi 4-bosqich kursanti Nodirbek Boboxolovni suhbata choradik. Nodirbek jamoaning raqib bilan natijalari teng kelgan onda hay'at a'zolari tomonidan tashkil qilingan qo'shimcha blits savol-javobda bir daqqaq ichida 10 ta savolning barchasiga to'g'ri javob berib, kuzatuvchilar oqlishiga sazovor bo'lgan va jamaoga hal qiluvchi ballni taqdim qilishga erishgan.

– Bo'ljak ofitser sifatida sizning tasavvuringizda jadidlar kim va millat oydinlarini hayot bo'lganida XXI asr jadidlar qanday bo'lar edi?

– Abdulla Avloniyda shunday fikrlar o'qigan edim: "Har kini tug'ilgan, o'sgan yerini joridan ortiq sevadi. Biz turkistonliklar o'z Vatanimizni sevganimiz kabi, arablar Arabistonlarini – qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar shimal tarafalarini – eng sovuq, qor va muzlik yerlari boshqa yerlardan ziyyoda sevadilar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tirkchili oson yergala o'z Vatanlarini tashlab, ko'chib ketar edilar". Xuddi shunday, harbiy xizmatchilar ham Vatanning issiq yoki sovuq hududi demay, har qanday joyda xizmat qilishga shay bo'ladilar. Shu ma'noda harbiy xizmatchi sifatida jadidlar ham xuddi biz kabi Vatan himoyachisi deb atasak mubulag'a bo'lmaydi. Umuman, jadidlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida millat ma'rifatini uyg'otishni maqsad qilgan xalq ziyoralarini edi. Ular ta'lim, madaniyat uchun zamonaviy ilm-fan orqali millati taraqqiy ettirishni ko'zlagan. Fikrimcha, XXI asr jadidlar, ehtimol, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va globallashuv muhitida millat o'zligini saqlashga intilib, axborot sohasida yetakchilik qiluvchi mutafakkirlar bo'lgan bo'lar edi.

– Jadidlarni millat oydinlarini deymiz. Ularning qaysi xislatlari harbiy xizmatchilarda ham bo'lishi kerak, deb hisoblaysiz?

– Eng avvalo, ma'rifatparvarlik xislatlari aytgan bo'ldirim. Harbiy xizmatchilar nafaqat jangovar, balki ilmiy va madaniy saviyasi oshirishga ham intilishi lozim. Bundan tashqari, vatanparvarlik tuyg'usi. Ehtimol, bu so'z biroz balandparvoz gapdek tuyular. Lekin vatanparvarlik – katta jasorat talab qiladigan tuyg'u. Bilasiz, jadidlar otilgan va yo surgun qilingan... Ya'ni yurti, xalqi uchun, kerak bo'lsa, umrini, jonini fido qilgan. Shu sabab jadidlar kabi harbiy xizmatchilar ham Vatan uchun xizmatni umrining mazmuni sifatida ko'rishi kerak. Shu bilan birga, millat oydinlarining jasorat va yangilikka ochiqlik kabi xislatlari ham har bir ofitserda bo'lishi lozim. Jadidlar o'z davri uchun yangiliklarni tatbiq qilganidek, harbiy xizmatchilar ham yangi strategiyalar va texnologiyalarga tayyor bo'lishi zarur. Tarbiyaviy va mas'uliyat. Bu qadriyatlar ham jadidlar va harbiy xizmatchilar uchun birday muhim ahamiyatga ega.

– Jadidlardan qaysi biri sizni ko'proq ta'sirlaningiz?

– Meni eng ko'p ta'sirlaningiz shaxs bu – Abdulla Avloniy. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlarini har bir yosh o'qishi kerak bo'lgan kitoblardir. Bundan tashqari, safdosh do'stlarimga Abdurauf Fitrating "O'zbek tilining soddalashdirilgan grammatikasi asari", bir nechta mualliflar yaratgan "Jadidlar harakati tarixi" kabi ilmiy kitoblarini ham o'rganishini tavsiya qilaman. Chunki bu asarlar nafaqat tarixiy bilim beradi, balki milliy ruhiy kuchaytiradi va moziydan saboq olishga yordam beradi.

– Bilimga chanqoqlik, intiluvchanlik, g'ayrat-shijoat sizni va jamaoadoshlariningizni tark etmasin. Suhbat uchun tashakkur.

Harbiy jurnalist

Yulduz O'RMONOVA suhbatalashdi.





Boshlanishi 1-sahifada.

Gap shundaki, muhtaram Prezidentimiz mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga munosib hissa q'shib kelayotgani uchun surxondaryolik tadbirkor Dilorom Yo'ldoshevani "Mardlik" ordeni bilan taqdirdilar. Xalqaro Bi-Bi-Si nashri tomonidan tuzilgan dunyoning eng irodali va e'tibori 100 nafrar ayoli ro'yxatidan o'rinn egallagan bu ayolning bir necha yildan buyon namoyon etib kelayotgan matonat va jasorati tahsinga sazovordir.

Nogiron bo'lismiga qaramay, o'z xonadona tikuvchilik ustaxonasi ochib, qirqdan ortiq qishloq ayollarini ish bilan ta'minlagan Dilorom Yo'ldoshevani ibratli faoliyatiga haqida Prezidentimiz gapirib, "Biz bunday irodali va matonatlari insonlar bilan har qancha faxrlansak arziyi. Ularni hammaga iibrat qilib ko'satishimiz kerak", deb alohida ta'kidlidilar.

Dilorom yuksak mukofot bilan taqdirlanganini eshitgan chog'iqa quvonchdan to'liqib ketdi, diydasi yumshab, ko'zlarini namlangan bo'lsa-da, biroq ko'pchiligning o'rtaida o'zini qo'qila ola bildi. Ha, inson qadri shunchalar yuksak bu mustaqil Vatanda!

Shu kungi majlisda yozuvchilar, kinochilar oldiga bunday fidoyi insonlarning sharafiga hayoti va faoliyatiga haqida badiiy asarlar, filmlar yaratish vazifasi qo'yildi.

\*\*\*

Xo'sh, Dilorom Yo'ldosheva kim aslida? U Denova qo'shni Oltinsaydan. 1984-yilda Guliston mahallasi, ishchi oilasida tug'ilgan. Otasi Shodi aka bir umr montyor bo'lib ishlagan, onasi Yorqinoy opa uyda bolarlar – uch qiz va bir o'g'ilning tarbiyasi bilan mashqib edi.

Dilorom o'lada katta qiz. Bolaligi zavqli, shodon va quvnog kechdi. U kichikligidanoq bosiq, ta'sirchan, xayolga ko'p beriladigan qiz bo'lib o'sdi. Qahramonimiz mabkabda yaxshi o'qidi, ikkita sinfdoshi – Sayyora, Sevaralar bilan jonday dugonalar edilarki, hech naryog'i yo'q. Ularni bir jon-u bir tan desa bo'lardi. Oralaridan qil o'tmas, hamisha birga dars tayyorlashar, birga o'nashar, tepe mahalladagi suvi limmo-lim bo'lib oqadigan ariglar bo'yiga borishar, Vaxshivor tog'iga chiqishar, tabiatning go'zalligidan zavqlanishardi.

Oila da to'ng'ich farzand bo'lgani uchunumi, otasi ko'proq Diloromga suyanar, hatto ayrim masalalarda u bilan maslahatlashardi. Dilorom bundan quvonar, mehribon otasiga qo'dan kelgancha yordam berishga harakat qilardi.

Bir kuni otasi gap orasida: "Kim bo'lmochisan, qizim?" deb so'rab qoldi.

Diloromning ko'zlari charaqlab ketdi. Kichiklikdan orzusi bor edi: u tikuvchidizayner bo'lmochqich!

– Maktabni bitirsam, Toshkentdag'i "Mashhura" o'quv markaziga borib o'qiyman, otajon! – dedi qiz dadil. – Maktabda bichish-tikish to'garagiga ham qatnashyapman.

– Lloym, niyattingaga yet, qizim! Senga ishonoman, – deb onasi uni maqtob qo'ydi. – Yangi uy qurilishini bitkazib olaylik, keyin albatta o'qisyan... Hozircha, xolangning qiziga shogird bo'lub, ish o'rganib turgin, u yaxshigina tikuvchiligi.

– Xo'p bo'ladi, otajon!

Biroq kutilmaganida Dilorom taqdirlarning avyosini zarbasiga duch keldi. U maktabni bitirib, shirin orzular og'ushida katta shaharga ketishga chog'lanib turanganida mehribon otasi o'ttiz oti yoshida olamdan o'tdi. Kechki g'ira-shirada qishloqda chiroq o'chil qoladi. Uning otasi odamlarning uyini yoritish maqsadida simyoq'chiga ko'tarilish, uzilg'on simlarni ularotganida nogahon kuchli tok chaqnashi yuz beradi va oqibatda Shodi montyorning kuy-gan-qoraygan jonsiz tanasi yuqorida yerga qulaydi...

O'lmoqning ortidan o'lmoq yo'q, deyishgan. Dilorom otasidan ayrligani qattiq kuyingan bo'lsa-da, lekin irodasini qo'lga oldi. Onasining yoniga kirib, ro'zg'or tebratishda unga ko'maklasha boshladi. Qarindosh-urug'lar ham qarab turishmadi, holi-qurdlat yordam berishdi. Aqlli qiz fahmladiki, Toshkentga borib o'qishdan voz kechish kerak, qolaversa, bu narsa ko'ngilga ham q'smaydi, mablag' ham yo'q...

Bu orada sovchilar eshik qoqib kela boshladi. Yaxshi qiz uzoq o'tirmaydi, darhol elning nazariga tushadi. Nihoyat, 2006-yili Diloromni Denov tomonlarga uzzatishdi. Turmush o'rtog'i Dilmurod besh aka-ukaning biri edi. Uning otasi ham ancha yillar burun dunyodan o'tgan ekan. Oqibatda mushtipar ona jonini jabborga berib bir etak bolani katta qilgan. Afsuski, u ham keyingi vaqtarda oq'ir salgalash chalinib, yotib qolibdi...

Dilmurod bir akasi bilan fermada cho'ponlik qilardi. Xudo ularga Jaloliddin, Mohlaroyim, Saidafzal ismlisi biri-biridan shirin uch farzand berdi...

Kattagina xonadonda besh kelin ahil va inoq yashay boshladi. Ayniqsa, katta ovsini Adiba Diloromga ovsin emas, balki tug'ishgan opasidek edi. Mehribon-u mushfiq, hamisha yordamga tayyor turadigan, ko'ngli ochiq ayol. Hamma ish katta xonadonda shu ikkisiga tushgandi. Qozon-tovoq – bir. Bozgura borishmi, tomonqada ishlashmi, to'y



## ABADIYAT ORALAB...

Barkamol siymlardan meroz oydin xotira, munavvar tasavvur inson xayolida qayta va qayta jlonlanaveradi. Biz Oybekni ko'rgan emasiz. Dilbar inson, iste'dodli adib, lirik shoir, adabiyotshunos olim Oybek to'g'risidagi tasavvurimiz kitoblar tufayli paydo bo'idi. Ayni chog'da, Oybekka zamondosh, ularga hamsuhbat bo'igan tabarruk insonlarning xotiralari, yodnomalari biz uchun muhim va ardoqlig. O'sha tabarruk xotiralarni eshitib, Oybek dunyosiga qayta nazar solamiz. Ibratlanamiz...



## MAVLONO OYBEKNING MUNAVVAR YODI

O'n yillardan Toshkent shahridagi maktabalardan birida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekka bag'ishlangan anjumanda mo'y-safid Siddiqxo'ja ota xotira so'z-ladi.

Ota gapini adibga ehtirom sifatida "mavlono Oybek" degan bir jutf so'z bilan boshlagan edi o'shanda. 1965-yili Oybek to'g'risidagi hujjal film suratga olinishi lozim bo'ladi. Ota aytdiki: "Zarifa opa Oybekni yangi do'ppida suvratga oling-lar, deya tayinladilar. Biz birgashish bo'zligi "Zarafshon" restorani yonidagi - o'sha zamonarda mashhur bo'igan milliy kiyimlar do'koniga kirdik. Sotuvchi yoshgina qiz ekan. Olib qo'yib do'ppi tanladik. Biri ancha tor keldi. Boshqasi, eng katta o'chamdagisini so'rashdi. Olib berdi: 62 razmer. Oybekning boshiga shunisi mos tushdi. U so'zlashga ancha qynalardi. Fikrini imo-ishora bilan anglatardi. Boshiga do'ppi loyiq kelganidan quvonib, shu ma'qil degandek ko'zlarini mamnun chaqnadi; bosh irg'ab tasdiqladilar. Do'ppi uchun pulni biz to'lamoqchi bo'ldik. Shunda u: "Zari... Zari...", dedilar bazo'r. Uylaridan chiqa turib Zarifa opaning "Pul mana shu cho'ntakda", deb tayinlaganiga ishora qilayotgan edilar. Qanchalik qistasak-da, o'jarlik bilan pulini o'zi to'lashi kerakligini anglatdilar. Ust kiyimining ko'rak cho'ntagidan olti-yettita qizil o'n so'mlikni chiqarib stolga qo'ydi. Sotuvchi qiz bu ko'p-ku degandek hayratlandi. So'ngra

ulardan bittasini olib, qirq tiyin qaytim berdi. Aniq esimda, do'ppi to'qqiz so'm oltmishtiyin turar ekan. Men sotuvchi qizga qarab: "Qutlug' qon", "Navoiy" romanlarini o'qiganmisiz? Uning muallifini taniysizmi?" dedim ohista. Qiz birdan jlonlanib tasdiq javobini berdi. So'ng savolimdan ozgina taajjublandi va savollanib menga qaradi.

Men esa unga: "O'sha kitoblarni yozgan hazrati inson mana shu Oybek bo'ladilar", dedim. Qiz birdan shoshib qoldi. Biron ayb ish qilgandek apil-tapil tortmadan pulni chiqarib do'ppi uchun haq olymayman, deb turib oldi. Beixtiyor ko'zlarini yoshlandi. Go'yo rostdan ham ulkan bir gunoh ish qilgandek atrofga alangladi. Qizgina yuzini qo'llari bilan yopgancha unsiz yig'lardi. Hurmatining cheksizligini qanday izhor qilishni bilmas edi. Yoshlarning ehtiromi mavlono Oybekka ana shunaqa edi".

Oybekning xos ulug'vorlikning qaysidir qirrasi va Zarifa opadagi mehribonlikning ayrim jihatlari ushbu xotirada mujassam edi. Ammo Siddiqxo'ja ota e'tibor bergen narsa - Oybeka muxlislarining hurmat-ehtiromi cheksizligi - bu endi bebabu hissiyotdir. Oybek chin ma'noda humrat qozondi, ehtiromga munosib yashadi. Bunga aslo shubha yo'q.

Siddiqxo'ja otaning ikkinchi bir xotirasi ham bevosita Oybek shaxsiyatini, aniqrog'i, adibning saxovatini bir inson bo'lganini ko'r-satadi, ota eslab ketadi:

"1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin aholining ko'pchiligi hozirgi

"Istiroyat" mavzesiga ko'chirilgan edi. Tabiiyki, har kimning holi o'ziga ma'lum. Uy-joy qilishda qynalib, qo'lli kaltaligi bois imorati tomini yopa olmagan bir tanish kampir mavlono Oybekdan qarz so'rab keladi. Imo-ishora bilan bazo'r gapiradigan Oybek eski qadrdon-qo'shniining iltimosini yerda goldirmasdan pul berib yuboradi.

Oradan bir yillar o'tib, Oybekning eshiqi qayta taqillaydi. Yana o'sha tanish kampir. Qarzini olib kelibdi. Qarzga berilgan pul xayolidan ham ko'tarilib ketgan mavlono Oybek kampirdan imo-ishora bilan ahvol so'raydi: "Uy tomi yopilgan ekan, ichkaridagi to'shovlari qanday? Bola-chaqanning kiyim-boshi butmi?" mazmunida savol beradi. Endi bir amallab boshpura qilib olgan faqir nochor ko'zini yerga qaydaydi. Tang holatni adib so'zsiz ichichidan sezadi. Achinadi: "Ahvoli yaxshi emas". Shunda mavlono Oybek kampirning qo'lidan qarz pulini olib: "Mana, qarzni berdingiz, qutuldingiz", degan ma'noni anglatgan bo'ladni va yana xuddi shunday imo-ishora bilan: "Endi pulni oling. Ehtiyoj uchun sarflaysiz. Sizga hadya", deydi.

Kampirning qarz mas'uliyatini naqadar his etgani va mavlono Oybekning saxovati bugun ham har kimga iibratdir", deydi.

Bu xotirani avval ham ko'p eslab yurdim. Mavlono Oybek shaxsiyatini, aniqrog'i, adibning saxovatini bir inson bo'lganini ko'r-satadi, ota eslab ketadi:

"1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin aholining ko'pchiligi hozirgi

Bahodir KARIM

## NUQTAYI NAZAR

"Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur... Olamdag'i hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'chanur..."

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Iqtisod nima?" degan savolga shunday lo'nda javob berganlar. Mutaxassislar Yaponiyaning yuksak taraqqiyotga erishishiga ma'naviyat - iqtisodiy rivojlanishning asosi etib belgilangan sabab bo'lganini, dunnyoda iqtisodiy taraqqiyotni ortga surayotgan asosiy omillar ham ma'naviyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlashadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning ikkita o'a tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: bira - iqtisodiyot, bira - ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq - iqtisodiy tomonidan ham buyuk bo'ladni", deb bejiz aytmag'an. Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy kabi buyuk ajoddolarimiz ham taraqqiyotda axloq va ma'naviyatning o'rni bebabu ekanini ta'kidlaydi.

Hozirgi notinch zamonda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan tengsizlik va taribtisizlik, atrof-muhitga beayov tabdidlar va iqlimning keskin o'zgarishi misli ko'rilмаган muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z navbatida, iqtisodiyot bilan birga axloqiy masalalarga ham juda jiddiy yondashuv zarurati o'taga chiqardi. Xossatan, biz ta'limga iqtisodiy fanlar qatorini ma'naviy bilimni ham kiritmas ekanmiz, moddiy va ma'naviy muvozanatni qadrlaydigan yosh kadrlarni tarbiyalay olmaymiz.

## O'TMISHGA BIR NAZAR

Hazrat Alisher Navoiy ijodida ham tijorat va savdo ishi ma'qullanadi, ammo tovlamachi va

chayqovchilar qoralanadi. Husayn Boyqaro taxtga chiqishi munosabati bilan yozilgan "Hiloliya" asari Navoiyning iqtisodiy fikr va g'oyalari ilgari surilgan dastlabki asari hisoblanadi. Ulug' shoir bu voqeani zulmat qorong'isini yoritadigan "hilol", ya'ni uch kunlik oy bilan tenglashtiradi. U bundan buyon mamlakatning iqtisodiy-siyosiy quratri oshishi, xalqning ijtimoiy va moddiy ahvoli yaxshilanishi, urushlarga barham berilishi, yurda tinchlik o'rnatilishiha ishonadi.

Haqiqat ham, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida mamlakatda qator ijobiylisiljalar kuzatildi. Savdo-sotiq kengayib, hunarmandlik va dehqonchilik rivoj topdi. Suv inshootlarini qurish ko'paydi. Navoiy yurtuchun sug'orish tizimini kengaytirish iqtisodiy rivojlanishga olib boruvchi muhim omillardan biridir, deydi. Uning bevosita rahnamoligida o'sha paytda yetmishdan ortiq kanal va ariqlar qazilgan.

## MEROS

# Bola baxshi tug'ma chapaqay bo'lganmi?

"Xivada bir yosh baxshi chiqib mish, ko'rsangiz hayron qolasiz, o'zinnan dutori ullimish. Shundin zo'r ovozi bormishki, eshitganlar "tasdiq" aytamishlar".

1908-yilning ayni bahorida Xiva shahrida shunday gap tarqaldi. Qurbanazzar baxshini eshitganlar uni zo'berib maqtashsa, eshitmag'an, ko'rmaganlar bir ko'rishga ishtiyoqmand edi. Bu gap Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy - Feruz qulog'iga yetadi. Feruzxon ham adabiyot va san'at shaydosi emasni, baxshini ustoz bilan birga saroya chaqitiribdi.


To'qqiz-o'n yashar Qurbanazzar ustoz Jumanazar baxshi hamrohligidagi dutorini olib, xon huzuriga kiradi. Muhammad Rahimxon Feruz kichkina baxshidan bir nomda eshitib ko'radi.

- Ko'z deymasın, bu bola baxshiga. Ustozingga, ota-onangga rahmat, o'g'lim. Kamol top. Bundan keyin sening oting Bola baxshi bo'lsin, - deb xon Qurbanazzarning yelkasiga qoqib qo'yadi.

Shu-shu, Qurbanazzar Abdullayev Bola baxshi bo'lib Xorazm elida tanildi. 1899-yilda tavallud topgan Bola baxshi o'n yoshidan qo'llida sozi bilan elga xizmat qildi.

Aytishlariga qaraganda, Bola baxshining ajddodlari o'z davrining ko'zga ko'ringan atoqli baxshi va go'yandalari bo'lishgan ekan. Katta bobosi Usmon baxshi o'z davrida xonning baxshisi bo'lgan. Uning o'g'li Avazniyoz bobo ham san'at va adabiyotni sevuvchi insonlardan edi. Bola baxshining otasi Abdulla bobo qozilik qilgan, deyishadi.

Qurbanazzarning otasi Usmon bobodan qolgan dutorini hech kimga bermay, sandiqda avaylab saqlarkan. Qurbanazzar 3-4 yoshlarida kasal bo'ladni. Isitmasi sira tushmaydi. Uni tabibga ko'satishadi. Tabib shifobaxsh damlama beradi. Bir kun onasi damlamani sandiqdan olayotganida Qurbanazzarning ko'zi u yerdagi dutorga tushadi. Bu dutor yuz yillardan ziyod ana shu sandiqda saqlanardi. Emishki, Usmon baxshi "Buni qachonlardir mening korimni (kasbimni) tutgan avlodimiga bering", deb vasiyat qilgan. Qurbanazzar onasiga dutorni olib bering, deb xarxasha qiladi. Otasi ruxsat bermaydi. Qurbanazzar shu



payt hushidan ketib yiqiladi. Yuziga suv sepib, o'ziga keltrishadi. Endi u yig'lashga tushadi. Onasi noiloj dutorni sandiqdan olib beradi. Bola yig'idan to'xtab, o'ziga keladi. Kun-kundan sog'aya boshlaydi.

Qurbanazzarning xat-savodi chiq-qach, Usmon baxshidan qolgan doston kitoblarini o'qib-o'ganadi. O'sha yillari Xivada Yodgor bulomonchi va Jumanazar baxshilar nom qozongan edi. Qurbanazzarni ularga shogirdlikka berishadi. Yosh Qurbanazzar bu ikki baxshidan dutor chalishni, terma va dostonlar kuylay olmas edi.

- Yodgor bulomonchi ilmi daryo san'atkor edi, - degan ekan Bola baxshi bir gal shogirdlariga. - U kishidan juda ko'p narsa o'rgandim. Bola baxshi bo'lib tanilishimda shu ustozlarimning hissasi katta.

Ikkinci jahon urushi boshlanganda Bola baxshiga ham chaqiriq qo'zni keladi. Bu xabarni eshitgan xivaliklar qo'liga ilingan yegulik, issiq kiyim olib, uni kuzatishga chiqadi. U paytda jangga ottlanganot va etshak aravalarda, ko'chiligi esa poyi piyoda Cholishga qarab yo'ga chiqishgan. Keyin Amudaryo orqali kemada Chorjo'ygacha borishar, o'sha yerdan yozibda frontga yo'lolar edi.

Katta maydon urushga ketayotganlarning kuzatuvchilar bilan gavjum. Bola baxshi o'tirgan ot arava ichi xalq berman yegulik va kiyim-kechak bilan to'lib ketadi. Shu payt uzoqdan bir kishi qo'llida yo'rgaklangan chaqalojni

mahkam bag'riga bosganicha olomon ni yorib oldinga o'tadi.

- Baxshi buva, o'g'illik bo'ldim. Mana shu bolani bir qo'lingizga oling. Yaxshi niyat qiling. Sizning urushda olib ketishga haqqning yo'q. Shu bolaning sunnat va farz to'ylarida xizmat qilgayman, deb niyat qiling, - deb u chaqalojni Bola baxshiga uzatadi.

Bola baxshi go'dakni qo'liga olib, niyat qiladi va peshonasidagi o'padi. Xalq o'zining suyukli baxshisini shu tariqa frontga jo'natdi. Bir yarim yilcha jangohlarda qon kechgan Qurbanazzar og'ir jarohat olib, yurtiga qaytbeldi.

"Rizq-nasibam bor ekan, odamlar niyat qilganida farishtalar o'min, degan ekanni, o'sha bolaning sunnat va farz to'ylarini soz-u subhat bilan o'tkazish menga nasib etdi", deb eslagan ekan u kishi.

Bola baxshi urushda o'ng qo'lidan yarador bo'lgan. Shu bois ancha vaqt dutor chalishning uddasidan chiqolmay qynaladi. Chunki u kishi dutor chertmasdan doston kuylay olmas edi. Natijada ming mashhaqqat bilan chap qo'lida soz chalishni o'rgandi. Shu-shu, Bola baxshi chapaqay bo'lib qoldi.

Baxshining ijodiy repertuarida "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Mahmud", "Bozirgon", "Xirmondal", "Avazxon", "Kampir", "Qirqming", "Safar ko'sa" kabi 20 dan ko'p doston bo'lgan. Shulardan "Bozirgon" dostoni 1965-yilda, "Avazxon" dostoni 1967-yilda yozib olinib, nashr etilgan. U hayoti davomida juda ko'plab san'at anjumanlarda ishtiroy etgan. Xususan, 1937-yilda Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida, 1938-yili O'zbekiston xalq ijodchilari olimpiyadasi, xalqaro Oltoyshunoslar folklor anjumanida o'z san'atini namoyish qilgan. 1938-yili u kishi "O'zbekiston xalq dostonchisi" faxriy unvoniغا sazovor bo'lgan.

Bola baxshi hayoti davomida yuzdan ziyyod shogirdlar yetishtirdi. Komiljon Otaniyozov, Ivtola baxshi, Qalandar baxshi Normatov, Karim baxshi Otamuropov, farzandlari Matyoqub, Matnazar, Davlatnazor, O'zbekiston xalq baxshilar Norbek va Yetmishboy Abdullayev ana shular jumlasidandir.

Boltaboy MUHAMMAD QURBON



## BUYUK IPAK YO'L – MA'RIFAT YO'L

Biz bugun jahon xalqlarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olib, vazminlik bilan kolisona ish tutish, ilg'or va insonparvarlik manfaatlariga xos bo'lgan ijobji tajribalarni o'rganish, tarix sinovidan o'tgan urf-odatlarini, boy an'an va milliy qadriyatlarini doimo asrash va ularni yanada rivojlantirish orqali yoshalimiz turli ma'naviy bo'hronlardan asrashimiz mumkin.

Tarixdan ma'lum, yurtimizning iqtisodiy rivojlanishida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati juda katta bo'lgan. Bu yo'l miloddan avvalgi II asrdan to milodiy XV asrgacha Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O'rta dengiz mamlakatlari orasida savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida.

Manbalarga ko'ra, Tinch ummonidagi Sariq dengiz qirg'og'ida, Xuanxe daryosi bo'yida joylashgan Sian shahridan boshlangan ushu bo'y dastlab Lanchjou orqali Xo'tangacha kelgan, u yerda ikkiga ajralib, bira shimali-

g'arba, ikkinchisi janubi-sharqqa yo'nalgan. Bizga pilladan ipak olish usuli Xitoydan kirib kelgan bo'lsa, xitoylar bizdan zotordi otalni sorib olgan va uzum, beda yetishtirish sirlarini o'rgangan.

Shuningdek, yurtimizda qadimdan qimmat-baho qorako'l teri olinadigan nasldor qo'yalar bilan parvarishlangan. Ularning terisi bilan savdo qilish katta ahamiyatga molik edi. Ajoddolamiz sifatli po'lat tayyorlash sirlarini ham yaxshi bilgan. Ular yasagan asbob-uskunalar sifati va nafisligi bilan ajralib turgan. Manbalarda qadimda bitta qilichning bahosi bir fil narxiga tayyorlangan Samarcand qo'z ozi esa n



Boshlanishi 1-sahifada.

1922-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy bu to'garaklar ishi bilan tanishadi. Qo'qon, Farg'on'a, Namangandan artistlarni olib kelib, teatr truppassi tashkil qiladi. Otam pyesalarini sahnalashtirish ishlarida Hamzaga yaqindan yordam berган. Ularning ijodiy hamkorligi fotosuratlarda muhrlangan.

1926-yilga kelib, davr taqozosi bilan joylarda ayollarning paranj'i tashlash harakatlari boshlangan edi. Otamining ota-onasi ham zamonasining ilg'or fikrli kishilar bo'lgani bois buvumiz birinchilardan bo'lib paranjidan voz kechgan.

Otam halol yashagan, sidqidildan ishlagan. Xalqni yanada ko'proq bilimli qilishga intilgan. Bu yo'lda kuchg'ayratini ayamagan. U kishi komsomol tashkiloti safidagi samarqandlik eng faol yoshlardan biri sifatida e'tiborga tusha boshlagan. 1926-yilda otamni bilimdon va tashabbuskorligi sababli Moskvadagi oliy o'quv yurtiga o'qishga jo'natishtadi. Natijada otam "Rabfak"da o'zbekistonlik ikki yuzga yaqin yoshlar bilan birga to'rt yil o'qiydi, til o'organadi. O'zinining aytishicha, o'sha paytda otam sakiz tilda bemalol gaplasha olgan. O'qish bilan bir paytda tarjimon, so'ngra mas'ul kotib va keyinroq maxfiy xizmat bo'limida boshliq o'rinnbosari sifatida ham faoliyat olib borgan.

Tahsildan so'ng onam qattiq betob bo'lib qolgani tufayli Samarqandga qaytadi. Agar shu voqe'a bo'lmaganida otam Moskvada butunlay yashab qolishi mumkin edi. Chunki o'sha yili Timiryazev nomidagi Qishloq xo'jaligi akademiyasiga ham imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, o'qishga qabul qilingan ekan.

Otam vatanga qaytgach, O'zbekiston davlat universitetining aspiranturasiga hujjat topshiradi. Bu yerda u kishiga taniqli tarixchi olim, professor Po'lat Solyev ilmiy rahbar bo'ladi va ustozlik qiladi. Aspiranturan tugatgach, otam shu joyga ishga olinadi va shijoat bilan ilmiy faoliyatini boshlaydi.

Afsuski, mash'um qatag'oning sovuq nafasi Samarqandga ham yetib kelgan edi. Otamni 1937-yilning avgust oyida uydan olib ketishadi. Bu paytda u Samarqand shahar maorif mudiri lavozimida ishlayotgan edi. Ertasi kuni NKVD xodimlari uyimizni tintuv qilib, otamning barcha kitoblari-yu qo'lyozmalar, hujjatlarini mashinaga bosib ketishadi. Bu

# OTALAR YOQQAN MAYOQ

shaxsий buyumlar keyinchalik ham qaytarilmadi.

Otam to tergov izolyatoriga kirgunicha o'zini qamoqqa olishganini sezmag'an, bularga tarjimon sifatida kerak bo'ldim, shekili, deb o'yigan.

Jamiyat faoli sifatida otam qo'llostidagi xodimlari bilan do'konlar faoliyatini ham nazorat qilgan va to'g'ri ishlamayotgan do'konlarni yoptirgan. O'zimizcha o'sha do'konlarning egalari chaquv xati yozishganmin, deb ham taxmin qilamiz. Nima bo'lganda ham biz haligacha shunday bilimli, iqtidorli odamni nima sababdan qamab yuborishganini bilmaymiz.



Otam o'n oy Samarqanddagi qamoqxonada tergov qilinadi. U kishi dastlab bir anglashilmochilik bo'lgan, tez orada meni qo'yib yuborishadi, degan xayolda bo'ladi. Ammo ustozi Po'lat Solyevning ham ishi tergovda ekanidan xabar topgach, "shunday professorni qamashibdimi, mening bu yerdan chiqishim dargumon", deb tushkunlikka tushadi. Taqqdirining qora tortayotganiga iloqsiz tan beradi.

Tergov hibsxonasida ellik kishilik joyga bi yuz ellik odamni joylashtiradilar. Shu bois kimdir o'tiradigan bo'lsa, boshqasi tik turishga majbur bo'lardi. Otam sochsoqoli oqarib, yoshi bir joyga borib qolgan aziz ustozi Po'lat Solyevga xat yozgan ekan. Yuborgan maktubida Mirzo Ulug'bekning astronomik izlanishlari

joy berib, unga mehribonlik qiladi. Bechora professor qamoqxonada ham mahbuslarga ilmiy ma'ruzalar o'qidi, shu tariqa erta-indin ozodlikdan mahrum etilishi yoki otishli mumkin bo'lgan baxtsiz insonlarning yuragiga umid chiroqlarini yoqib turadi.

1938-yilda yetuk olim Po'lat Solyev otuvga hukm qilinadi. Otamni esa o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etib, Kuybishev (hozirgi Samara) shahridagi qamoqxonaga jo'natishtadi. Qamoqxonada chekkun iztiroblari, ko'rgan qiyinchiliklari haqida xotira yozib, bizga meros qoldirgan.

Tez orada urush boshlanib, mahbuslar qamoqxona yaqinidagi zavodlarda qorol-yarog', o'q-dori yasash ishlariga jalb etiladi. Otam ma'muriyatdan o'zini frontga yuborishlarini ko'p bor so'raydi. Qamoqxonada mahbuslarni ikkiga bo'lib, ularning birinchi guruhini urushga yuborishadi, baxtga qarshi otam bu safga kiritilmaydi.

Otam 1947-yili yurtga qaytganidan keyin ham besh yil davomida shartli ravishda ozodlik huquqidan mahrum yashaydi. Qo'lida shaxsi va ma'lumotini tasdiqlaydigan birorta hujjati bo'lmagani tufayli ishga kira olmay yurbanida, bir paytlar o'zi ta'lim bergan o'quvchisi Oqdaryo sovxoziqa direktor bo'lib qoladiyu, otamni birga ishlash uchun chaqiradi. "Sovxoziq iqtisodiyoti ayanchli holatda, uni birgalikda ko'taraylik", deydi. Chunki otam nafaqat tarixchi olim, balki yer ishlari, dehqonchilik va bog'dorchilikni ham a'lo darajada biladigan inson edi. Hayotlik chog'larida u kishini "Michurin" deb ham atashardi.

Otam kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlab, sovxoziq iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun bor kuchini safarbar qiladi. Garchi yo'q aybi uchun "xalq dashman" deya atalib, o'q qamoq hayotini boshidan o'tkazgan bo'lsada, ruhiyatini cho'ktirmaydi. Surunkali ko'ksov kasalligidan azyiat chekib, ishga yaroqsiz bo'lib qolganda ham Mirzo Ulug'bek rasadxonasini qaytadan tiklash ishlariga bosh qo'shadi. Otam rasadxonani qayta tiklash uchun Moskvaga xat yozgan ekan. Yuborgan maktubida Mirzo Ulug'bekning astronomik izlanishlari

to'g'risida butun dunyon xabardor qilish maqsadida bu joyda memorial muzey qurish lozimligini ta'kidlaydi.

1960-yillarda rus arxeologi Vasiliy Vyatkining sa'y-harakatlari tufayli aniqlangan Mirzo Ulug'bek rasadxonasi xarobalari g'isht bilan o'rabi qo'yilgan, inshoot atrofi xaroba holatda edi. Otamning maktubi tufayli muammoni o'rganish uchun bir guruh mutasaddilar yuboriladi. Men o'shanda 10 yoshli qizaloq edim. Otam kelganlarga o'sha joyni ko'rsatib, tarixchi sifatida ularga ma'lumot berganiga guvoh bo'lganman. Oradan ko'p o'tmay, u kishining orzusi ushaldi. Ko'nak hududida Mirzo Ulug'bek rasadxonasi yana qad ko'tardi. Otam umrining so'ngigacha shu rasadxonaga qorovullik qildi.

U juda dol'g'ali, shu bilan birga, mazmunli hayot kechirdi. O'z davrining eng ilg'or kishilarini sanalgan Vadud Mahmud, Rahim Hoshimi yilinay qo'shadi, maslakdosh edi. U kishining Sadreddin Ayniy bilan ham aloqlari yaxshi bo'lib, domla ba'zi asarlarini otamga tarjima qildirgan.

Otam bizga sezdirmaslikka harakat qilsa-da, og'ir betob edi. Sovuq o'kalarda boshiga tushgan azob-uqubatlar o'zta'sirini ko'rsata boshlagandir. Shunday bo'lsa-da, u hech qachon tushkunlikka tushmadiv, bizning xotiramizda hamisha serg'ayrat va tashabbuskor inson sifatida muhrlanib qoldi. Otam yetti nafar farzandining hammasini o'qitib, olyi ma'lumoti qildi. Ko'hna va navqiron Samarqand shahridagi mashhur xiyobonga ekilgan ulkan chinorlarda ham otamning qo'llari tafti borligini o'ylasam, yuragim to'qinlanib ketadi.

Soy'zimning oxirida hummatli Prezidentimizning jadidlar olg'a surgan g'oyalarni bugungi kunlарimizga tatbiq etayotganining o'zi yangi jadidlik harakati ekanini aytmoqchiman. Katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, ammo eng kuchga to'lgan davrida orzulari ro'yoga aylangan ziyoли bir insonning farzandi sifatida yurtimizda ushbu egzu harakat hech qachon to'xtamasligini, otalar yoqqan mayoq aslo o'chmasligini tilab qolaman.

Muhayyo PIRNAFASOVA yozib oldi.

XOTIRA AZIZ



## QATAG'ON

## QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

**Abdulla Toshmuhammedov** – 1889-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Oktyabr to'ntarishiga qadar chilangarlik qilgan. 1919-yildan VKP(b) a'zosi, siyosiy faoliyati Frunze tumani partiya komitetining sekretari vazifasiga o'tgan paytdan boshlangan.

1937-yilning 1-sentyabrida Abdulla Toshmuhammedov NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan. U "Milliy istiqlol" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda, O'zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib, mustaqil burjademokratik davlat barpo etish yo'lida xizmat qilganlikda ayblangan. Abdulla Toshmuhammedov partyaning ichki siyosiy dasturlari, O'zbekistonning itqisodiyisosiy holat haqidagi ma'lumotlari Munavvar qori Abdurashidxonova yetkazib turganlikda, 1935-yildan 1937-yil may oyigacha O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasini tomonidan partiyadan xalq dushmanlari – trotskychilar va millatchilar ishlarini ko'rib chiqish bo'yicha instrukta sifatida ishlayotgan vaqtida aksilinqilobchilar to'g'risidagi materiallarni yashirganchida ayblanib, 1938-yilning 4-oktyabrida SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida otuvga hukm qilingan. Jazo o'sha kuniyoq ijro etilgan. Oradan biroz vaqt o'tib, 1956-yil 12-dekabrdan Abdulla Toshmuhammedov to'liq oqlangan.

**Karim Ikromov** – 1893-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning akasi Akmal Ikromov O'zbekiston Kommunistik partiyasining birinchi kotibi sifatida mamlakatimizning siyosiy tarixida muhim o'ren egallagan. Karim Ikromov 1918-yildan bolsheviklar kommunistik partiysi a'zosi, hibsga olingunga qadar Toshkent shahar Oktyabr rayoni partiya kengashining raisi bo'lib xizmat qilgan. U 1937-yilning 6-oktyabrida hibsga olingan. "Milliy istiqlol" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda ayblangan. Karim Ikromov 1926-yilda akasi Akmal Ikromov tomonidan bu tashkilotga jalb qilingan. Bu tashkilot o'z oldiga Sovet hokimiyatini ag'darish, milliy burjua davlatini barpo etish, O'zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib olishni vazifa qilib qo'ygan. Karim Ikromov 1936–1937-yillarda kommunistik rejalarni bajarmaslikda, qurilish va ta'lim sohalarida buzg'unchilik harakatlarini sodir etganlikda ayblanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalari bo'yicha aybdor deb topilib, 1938-yil 4-oktyabrdabda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida otuvga hukm qilingan.

**Qosim Sorokin** – 1899-yilning dekabrida Ulyanovsk guberniyasida tug'ilgan. Millati tatar. 1919-yildan VKP(b), 1929-yildan kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan. O'zbek, rus tillarini bilgan. 1921-yili Sharqshunoslik institutida o'qigan. 1918-yil o'zbek sovet boshlang'ich maktabida o'qituvchi, 1918–1920-yillarda Farg'on'a oblast xalq maorifi bo'limida yo'rqichi, oblast muslimlonlar byurosi targ'ibot-tashviqot bo'limi mudiri, "Yangi sharq" gazetasida, oblast siyosiy bo'limida axborot bo'limi boshlig'i, uyezd-shahar partiya komitetida targ'ibot-tashviqot bo'limi mudiri, 1921-yildan Qo'qonda chiqayotgan "Mehnat bayrog'i" gazetasida mas'ul muharrir, 1922–1929-yillarda Toshkentda "Turk ROSTA"da tashkilotchi-jo'riqchi, "Qizil bayrog" gazetasida va qator nashrlarda muharrirlik qilgan. 1923–1924-yillarda "Ozod Buxoro" gazetasida mas'ul muharrir, 1924–1926-yillarda Moskva da VKP(b) Markaziy Komiteti matbuot bo'limi yo'riqchisi, 1926–1929-yillarda Samarcanda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti matbuot bo'limi mudiri o'renbozari, 1927–1929-yillarda "Qizil O'zbekiston" gazetasini mas'ul muharriri, 1930–1931-yillarda O'zKompartiya Markaziy Komiteti matbuot sektorini mudiri, "O'zbekiston" nashriyotida muharrir vazifasida ishlagan. O'zKompartiya Markaziy Komiteti byurosi 1936-yil 13-iyunda Qosim Sorokini O'zSSR xalq maorifi komissari qilib tayinlagan.

U "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi bo'lganlikda, O'zKompartiya MK birinchi kotibi Akmal Ikromovning shaxsий "Turkistonning osti boyliklari", "Turkistonning qo'shishiga yaxshilash uchun bor kuchini safarbar qiladi. Garchi yo'q aybi uchun "xalq dashman" deya atalib, o'q qamoq hayotini boshidan o'tkazgan bo'lsada, ruhiyatini cho'ktirmaydi. Surunkali ko'ksov kasalligidan azyiat chekib, ishga yaroqsiz bo'lib qolganda ham Mirzo Ulug'bek rasadxonasini qaytadan tiklash ishlariga bosh qo'shadi. Otam rasadxonani qayta tiklash uchun Moskvaga xat yozgan ekan. Yuborgan maktubida Mirzo Ulug'bekning astronomik izlanishlari

dir, degen fikrni o'taga tashlaydi.

Shu bilan birga O'qtoyning "Turkiston kultur asarlarining oqibati" deb nomlangan maqolasi ham dolzarb ahamiyatga ega.

Muallif ushbu maqolasida Sovet hukumatni tomonidan o'lika xalqining milliy-madaniy merozigiga nisbatan vahshiyona xiyonatlarini ochiq-oydin tanqid qilgan.

Jumladan, u "XII-XV asrlardan hozirgi kungacha saqlanib kelgeling tarixiy binolar dinamit vositasiga ilar xarob etilib, havog'a uchirilmakda va Turkistonning xonsaroylari devorlari ostidagi marmar toshlar qo'poliligi, ko'priklar uchun ishlatgani olib ketil madadir. Masalan, Xiva shahrindagi "Go'runushxona"ning marmar bezaklari mahalliy xo'jalig bo'limi tarafidan ko'chirilib, ko'priklar ishlatilgan bo'lsa, Ho'qandagi Muhammad Alixon madrasasi buzilib, uning ham derazalari ko'priklar ishlatilgandir", deb millatining madaniy merozigiga nisbatan bolsheviklar tomonidan ko'satilayotgan varvarlarcha munosabatga keskin noroziligini bildirgan.

Shu bilan birga, jurnal sahifalarida, yuqorida ismlari zikr etilgan shaxslardan tashqari, jami 87 ta mualifining maqolalarini chop etilgan.

Ulardan Abdurauf Fitrat, Muftiy Sadridinxon Sharifxo'jayev, Abdulhamid Cho'lpon, Mag'jon Jumaboy, Elbek, Ahmad Hoxiy, Abu Nasr Hoji kabi ziyoli shaxslarni eslab o'tish mumkin.

Xulosa o'rnda ta'kidlash mumkinki, 1929–1939-yillarda chop etilgan "Yosh Turkiston"ning 117 ta sonidagi maqola, she'rlar, bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan pokdomon insonlarning achchiq xotiralarini bizni doimo ogohlilikka chorlab turishi lozim, deb hisoblaymiz.

**Muslimbek ALIJONOV**, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi

(Davomi kelgusi sonda).

## MUHOJIRLARNING NASHRI AFKORI

Chig'atoj tomonidan yozilgan.

Mustafo Cho'qayning "Yosh Turkiston" jurnalida chop etilgan maqolalariga nazar tashlasak, unda XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy muammolari teran fikrlari va tanqid asosida mustariylarning diqqat-e'tibor markaziga olib chiqilganiga guvoh bo'lami. Masalan, u tarixning mohiyati haqida to'xtalar ekan, uni yozishda muarrix adolatlari bo'lishi kerakligini, tarixdag'i voqe'a va hodisalarga doimo xolislik nuqtayi nazaridan turib baho berish shartligini ta'kidlaydi.

Dastlab Munavvar qorining "Namuna"



Chapdan: Tohir Chig'atoj, Mustafo Cho'qay va Abdulvahob O'qtoy.

maktabida tahsil olib, so'ngra bir guruhan turkistonlik yoshlar bilan birgalikda Germaniya o'qishga yuborilgan Tohir Chig'atoj va Abdulvahob O'qtoy ham "Yosh Turkiston" jurnalida maqol



## MAVZUGA QAYТИБ...

Adliya vazirligining bayonoti mediamahsulotlarning odob-axloq normalari, ma'naviy qadriyatlarga muvofigligini baholash va tegishli choralar ko'rish zarurligini inkor etmaydi.

Adliya vazirligi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining bir nechta tashkilot bilan birlgilikda qabul qilgan mediamahsulotlarni "ma'naviy ekspertiza" dan o'tkazishni joriy etish to'g'risidagi qaror bekor qilinganligini ma'lum qildi.

Shu bilan mediamahsulotlarning ma'naviy ekspertizasi zarur yoki zarur emasligi masalasiga nuqtu qo'yildimi? Aslo yo'q. Chunki takror bo'lsa ham ta'kidlash kerak: ma'naviy ekspertizaning zarurligi Konstitutsiyamiz, ommaviy axborot vositalari va madaniyat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarimiz normalardan kelib chiqadi.

## ANGLASHILMOVCHILIK

Nufuzli tashkilotlar birlgilikda qabul qilgan qaror ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ijobjiga qaraganda ko'proq salbiy baholanishi va ko'p o'tmay bekor qilinishi mediamahsulotlar masalasida jamoatchiligidan ham, mutasaddi idora va tashkilotlarda ham tushunmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, yangish qarash va yondashuvlar borligining ifodasidir. Anglashilmovchilik, xususan, quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjalarni to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga muvofig umumajburiy hujjalarni davlat organlari qabul qilish huquqiga

## MUDDAO NIMA?



ega. "Ma'naviy ekspertiza"ni joriy etish bo'yicha qaror qabul qilgan tashkilotlar qatorida bunday vakolatga ega bo'lмаган nodavlat notijorat tashkilotlari – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Milliy media birlashmasi bor. Buning ustiga, qaror qabul qilinganligi haqida dastlab Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bu haqda axborot berdi va ushu tashkilot qaror qabul qilgan tashkilotlar qatorida birinchi keltirilgan. Bundan Markaz qarorning tashabbuskor va asosiy ishlab chiquvchisi, degan xulosa kelib chiqadi. Bunday tashabbusni, albatta, olqishlaymiz. Lekin qonunchilikka muvofig qaromi, agar shunday qaror kerak bo'lgan taqdirda, davlat tashkilotlari, eng avvalo Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Madaniyat vazirligi qabul qilishi kerak edi.

Ikkinchidan, yuqorida keltirilgan Qonunning 24-moddasida huquqiy hujjalari loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tishi belgilangan. Bunday qilinmadni. Bundan tashqari, qaror loyihasi Adliya vazirligida ekspertiza qilinib, ro'yxtadan o'tkazilishi kerak edi. Markaz ushu qoidalarga riyoq qilmasdan, mediamahsulotlar ma'naviy ekspertizadan o'tkazilishi haqida axborot tarqatdi.

E'TIBOR QARATILISHI  
LOZIM BO'LGAN  
ENG MUHIM JIHAT

Mohiyatan Adliya vazirligining bayonoti tegishli tashkilotlar tomonidan mediamahsulotlarning milliy

mentalitet, odob-axloq normalari, ma'naviy qadriyatlarga muvofigligi tahlil qilinishini, ularni yaratuvchi va tarqatuvchilarga tegishli tavsiyalari, ko'satmalar berilishini, zarur hollarda, qonun talablariga zid mediamahsulotlarni yaratuvchi va tarqatuvchilarga nisbatan tegishli choralar ko'riliishini inkor etmaydi. Vazirlik bayonoti "Mediamahsulotlar faqat qonuniylik yuzasidan ekspertiza qilinishi mumkin", deb nomlangan. Ya'ni, qonun mediamahsulotlar ekspertizasini taqiqlamaydi. Bunga shubhasi borlar, takror bo'lsa ham aytamiz, Konstitutsiyamizning 33-moddasini, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 4-, 14-moddasalarini, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasini o'qib ko'rishsin.

Faoliyati mediamahsulotlar sohasini tartibga solish bilan bog'liq davlat idoralarining belgilangan vakolatlar, vazifalar ular tomonidan mediamahsulotlarni kuzatish, tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishni, so'z va ijod erkinligini suiste'mol qiluvchilarga nisbatan tegishli choralar ko'rishni nazarda tutadi.

Xususan, Prezidentimizning 2023-yil 27-iyuldaggi PF-114-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish choratdibrilari to'g'risida"gi Farmoni bilan Madaniyat vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida "...xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish" belgilangan (Farmonga 1-ilovaning g-bandii). Hukumatning 2021-yil 7-sentyabrdagi 558-qarori

bilan tasdiqlangan Madaniyat vazirligi to'g'risida Nizomda (11-band) madaniyat va san'at sohalari qonunchilikka riyoq etilishini nazorat qilish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksalishni rag'batlanishir vazirlikning asosiy ustuvor vazifalari qatorida sanab o'tilgan.

Xullas, mediamahsulotlar yaratilishi va tarqatilishi sohasida vaziyat og'ir ahvolda. Buni soha vakillari, mutasaddi idoralar rahbarlari va xodimlari, deputatlar tushunib yetishlariga umid qilamiz.

Mutasaddi davlat tashkilotlari – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z vakolatlaridan foydalanan, onuna zid mediamahsulotlar yaratilishi va tarqalishining oldini olish maqsadida respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi lozim.

Adliya vazirligi ham fikrimizcha, qisqa bayonot bilan cheklanmay, chetdan kuzatuvchi bo'lib qolmasdan, dolzarb hayotiy muammoga faqat formal-yuridik nuqtani nazardan emas, balki qonun normalarida ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib yondashsa, muammoni bartaraf etishda, Prezidentimizning 2017-yil 3-avgust kuni yurtimiz ziyyolilar bilan o'tkazilgan uchrashuvdag'i qat'iy ko'satmalarini qonunchiligidan, hayotga tatbiq etishda faol qatnashsa, ayni muddaa bo'lar edi.

Farhod QURBONBOYEV,  
iqtisod fanlari nomzodi

## TILBILIM

## OG'IZDAGI O'RA

Xalq og'zaki ijodida "uvuz eti uv bo'lib" degan ibora "uvuz eti zahar bo'lib" degan ma'noda keladi. Chunki bu jumlada uv so'zi "zahar", uviz so'zi esa "og'izning ikki cheti" mazmunini bildiradi. Men bu iboranidastlab "uvuz suti uv bo'lib" degan ma'noda tushungan edim. Chunki yangi tug'gan sigirning birinchi kunda sog'iб olingen xom suti uvuz suti deyligan. Keyin bilsam, bu yerda nihoyatda qiyngalgan, og'ir qayg'uga botgan odamning nima yesa tatimasligi, zaharga aylanishi ma'nosida "uvuz eti uv bo'lib" degan nodir ibora qo'llangan ekan.



Uviz suti iborasi adabiy tilda og'iz suti shaklida ham qo'llanadi. Demak, uviz bilan og'iz bitta so'z. Yanayam aniqrog'i, og'iz shevada ovuz deylidi. Bu sut buzoqning ilk bor og'zi tekkan uchun og'iz suti deyligan bo'lishi kerak. Asli buzoqning haqqi bo'lgan bu sutga odamlar ham doim teng sherik.

"O'zbek tilining izohlil lug'ati"da yangi tug'gan sigirning uch-to'rt kunlik sutini yig'ib pishirilgan pishloqsimon taom ham og'iz deb atalishi haqida ma'lumot berilgan. Bu qayg'anoq bo'lsa kerak. Lekin qayg'anoq birinchi kundagi suttan tayyorlanadi.

Mahmud Koshg'irida odam va hayvonlar og'zi ma'nosini bildirgan og'iz so'zi ag'iz shaklida kelgan va ag'iz jöcä köz ujazur – og'iz yesa ko'z uyalur degan maqol misol qilingan. Bu maqol keyingi zamondarda "Yegan og'iz uyalar" bo'lib o'zgargan.

"Turkiy tillari etimologik lug'ati"da ag'iz so'zinining tub ildizi ag' bir qancha ma'nolarda taxmin qilingan. Jumladan, yoriq, tuyunki, teshik,kovak, o'ra, lang ochiq kabi farazlar aytildi. Lekin bularidan farqli yo'sinda tilshunos V.Bang ag'iz so'zi etimologiyasini ikki labga taqaydi va asli äkiz – ikiz, ya'ni egiz so'zi bilan bog'lanishi mumkin deydi. Bu o'rinda u ikki labni egizga mengan bo'lishi kerak. Bangning taxmini qiziqroq, lekin menga undan ko'ra, yuqoridaq farazlar asosliroq tuyuldi. Yana kim bilsin?

Qo'shimcha ma'lumot: "Hibat-ul haqoyiq"da "og'iz til" degan ibora keladi. Bu ibora lafz, nutq ma'nosini anglatadi. Ag'iz til bezägi könö söz durur, ya'ni, nutq bezagi to'g'ri so'z bo'lur. ("Qadimgi turkiy til lug'ati").

Eshqobil SHUKUR

## HAJV

## BIR TO'Y TA'RIFINDA

To'yu tomosha derlar, to'yi tomosha bo'ldi, Dumbasin ko'tarolmay qo'yil tomosha bo'ldi.

Kuyov bengal shamidek, xitoyfonusdek kelin, Ko'z tegmasin, bo'yalar bo'yga yarasha bo'ldi.

"Limuzin", "Ford", "Mers"... o'ttiz chog'li moshin keldi-yov, Kam deb chiqmadi kelin. Andak xarxasha bo'ldi.

Sher keldi, Yulduz keldi va sun'iy yulduzchalar, Mumtozga estrada qo'shilib "kasha" bo'ldi.

Kecha "deport" bo'b qaytg'an usta O'ktam sochgan pul Otarchining boshiga tomdan tarasha bo'ldi.

Bir ariq araq bo'ldi, bir ariq bo'ldi vino, Mirkomil Misha bo'ldi, Soyibjon Sasha bo'ldi.

Mezbonning hisobidan mehmonga tutib sharob, Terlab Faxriddin ziqla saxovatpesha bo'ldi.

Qudag'aylar o'ynadi urishirib qorinni, Sarxushroq o'yinch'i qiz shu joyda pashsha bo'ldi.

Qistirilgan dollarni cho'ntakka urdi quda, Urdi xudo, qudalar aro mashmasha bo'ldi.

Chimildiqqa kelinni g'ildiratdi toybola, "Quvvat bersin", "Bo'sh kelma", "ly-yuv! Ha, yasha!" bo'ldi.



Kelinlik kasb emasdир, hunar emas kuyovlik,

Qudag'aylar tashvishi qo'shilib qo'sha bo'ldi.

Kelin ketdi ho'ppayib, kuyov qoldi so'ppayib,

Sezib turganizingizday, yakuni... o'sha bo'ldi.

Mulla XUNOB

## TARMOQLARDA NIMA GAP?

IKKI SOATLIK DABDABA  
UCHUN BESH YILLIK QORA MEHNAT

Azimjon mehnatsevar yigit. U besh yil umririni chet elda mardikorlikda o'tkazdi. Vatanni, ota-onaning qadrini bildi. Do'st bilan dashmanni ajratdi, uyning gapi ko'chaga to'g'ri kelmasligini ko'rdi, his qildi. Ba'zan bir tishlam nonga zor, hatto, vaqtincha bosphanasiz qolgan kunlari bo'ldi. Yetishmovchilik ko'rib ulg'aygan yigit emasmi, shukr qildi, chidadi.

Yosh ham o'ttizni urib qo'yan, sindoshlar ichida uylannaganib o'zi qolgandi. Shu uchun yeishichish, tuzukroq kiyinishdan ham tiylib, pul yig'di.

Besh yil hazilakam muddat emas, anchagina mablag' to'pladi. Chog'roqqa to'y qilib,

bundayroq mashina olsa bo'ladi. Tejab sarflasa, sutlik sigirha ham yetadi. Otasining aytishicha, uyni ta'mirlab qo'yishibdi.

Orzular og'ushidagi yigit Germaniyadagi bir to'yning video-sini ko'rib, mana, shu marosimni kamchiqim qilib o'tkazsa ham bo'lar ekan-a, deb quvondi. To'y oddiy kafeda bo'yapti, stollar bo'm-bo'sh. Mehmongan joyga kelib o'trishyapti. Ko'ngillari tusagan taom yoki ichimlikni yeb-ichishmoqda. Alloh bergan ne'mattarning uvoli yo'q. Muhibi, sarf-xarajat masalasi cho'ntakbop. "Agar men ham shunday to'y qilsam, yig'gan pulimning ortgan qismi kichikroq biznesni yolga qo'yishimga bemalol yetar ekan". Yigitning xayolidan o'tgan bu foziga olingan qarz balosi. Ko'rpasiga qarab oyox uzatmagan ona esa "Birovdan

kam bo'lma, dedim-da", deyishan nariga o'tolmadи. Yigit bor alamini ichiga yutib, otasiga yuzlandi: "Otajon, siz er kishisiz-ku, nahotki onamga to'g'ri tushuntirmaqda. Baxt ikki soatda qancha pul sarflash bilan o'chanmaydi, axir..." Bizningcha, kimo'zar to'ylar masalasida tartibni joriy qilish uchun otalar jilovni qo'lg'a oladigan vaqt allaqachon yetgan. Siz nima deysiz?

Obid QO'LDOSSH Facebook

Bizningcha, kimo'zar to'ylar masalasida tartibni joriy qilish uchun otalar jilovni qo'lg'a oladigan vaqt allaqachon yetgan. Siz nima deysiz?

Obid QO'LDOSSH Facebook

Bizningcha, kimo'zar to'ylar masalasida tartibni joriy qilish uchun otalar jilovni qo'lg'a oladigan vaqt allaqachon yetgan. Siz nima deysiz?

Obid QO'LDOSSH Facebook



Bosh muharrir:  
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:  
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:  
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:  
Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva

Buyurtma: G – 140.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.